



“AXLOQ” KONSEPTINING IJTIMOIIY-MADANIY JIHATLARI

<https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i03.121>

Bobojonova Shohsanam Sharifboyevna

Navoiy davlat universiteti doktoranti

shohsanambobojonova123@gmail.com

Annotatsiya. Axloq – inson tafakkurining, ma’naviy hayotining va ijtimoiy munosabatlarning eng qadimiy, eng murakkab va eng dolzarb kategoriyalaridan biridir. U nafaqat insonning tashqi xulqi, balki ichki dunyosi, vijdoni, e’tiqodi, mas’uliyati va ruhiy olamini belgilovchi ma’naviy mezondir. “Axloq” konsepti ma’naviyat tizimining markazida turib, shaxs va jamiyat o’rtasidagi ruhiy-madaniy muvozanatni ta’minlaydi.

Abstract. Morality is one of the oldest, most complex and most relevant categories of human thought, spiritual life and social relations. It is a spiritual criterion that determines not only the external behavior of a person, but also his inner world, conscience, faith, responsibility and spiritual world. The concept of “morality” is at the center of the spiritual system, ensuring a spiritual and cultural balance between the individual and society.

Kalit so‘zlar: axloq, konsept, ma’naviyat, psixologiya, madaniyat, kategoriya, barkamollik, yetuklik, konnotatsiya.

Key words: morality, concept, spirituality, psychology, culture, category, perfection, maturity, connotation.

Kirish. Til va ma’naviyatning uzviy bog‘liqligini tadqiq etuvchi lingvoma’naviyatshunoslik doirasida axloq konsepti “ma’naviyat” kategoriyasining yadrosi sifatida qaraladi. Shaxsning ma’naviy barkamolligi axloqiy yetuklik orqali ifodalanadi, bu esa jamiyat barqarorligi va madaniyat taraqqiyotining asosidir.

O‘zbek tili lisoniy tizimida “axloq” tushunchasi nafaqat falsafiy va diniy, balki ijtimoiy va psixologik konnotatsiyalarni ham mujassamlashtiradi. Shu bois uni kompleks tahlil etish lingvokognitiv va aksiologik tadqiqotlar uchun ham zarurdir.

Axloq – inson xulq-atvori va uni shaxs sifatida “e’lon qilish” mezonlari bilan bog‘liq murakkab va ko‘p tarmoqli fenomen. Mazkur konsept – individual, ijtimoiy va madaniy qatlamlarda tartibga solingan, normativ jihatdan nazariy va empirik jihatdan o‘rganilishi mumkin bo‘lgan to‘plam. Insoniyat tarixida axloq nazariyalari din, falsafa, psixologiya va sotsiologiya kabi turli fanlar maydonida shakllangan. Shu bois, “axloq konsepti”ni falsafiy, diniy, ijtimoiy va psixologik jihatlarda tahlil qilish ilmiy nuqtayi nazardan katta ahamiyatga ega⁴⁰.

⁴⁰ Bu haqida qarang. Sh. Bobojonova O‘zbek tili “ma’naviyat” leksik-semantik kategoriyasining “axloq” umumiy semali atov birliklari tizimi. filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori diss. avtoreferati. Qarshi, 2022

“Axloq” kategoriya sifatida quyidagi ma’nolarga ajraladi. Shu bois ular quyidagi kategoriyalarni hosil qiladi.

1. Falsafiy kategoriya 2. Diniy kategoriya 3. Sotsiologik kategoriya 4. Psixologik kategoriya 5. Semantik kategoriya 6. Pragmatik kategoriya 7. Sotsiopragmatik kategoriya 8. Lingvopragmatik kategoriya.

“Axloq” konseptini falsafiy jihatdan insonning o‘zini anglash, o‘z xatti-harakatlarini baholash, ezgulik va yovuzlikni farqlash qobiliyatini ifodalaydi. Aristotel axloqni “amaliy aql” bilan bog‘lagan bo‘lsa, Imom Forobiy uni “fozil jamiyat” poydevori sifatida talqin qilgan. Sharq tafakkurida axloq – ruhiy poklanish va nafsni yengish vositasidir. Ibn Sino axloqiy fazilatlarini insonni jamiyat bilan uyg‘unlashtiruvchi omil deb bilgan, Jaloliddin Rumiy esa “axloq – insonni ilohiy haqiqatga olib boruvchi yo‘l⁴¹” deya ta’kidlagan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O‘zbek tilshunosligida tadqiqotchi B.Mengliyev, G.N.Tojiyeva, F.Yuldashev, M.Ahmedova, Y.Hojiyev va boshqalar tomonidan olib borilgan ishlar diqqatga sazovor.

O‘zbek falsafiy tafakkurida, ayniqsa Alisher Navoiy merosida, axloq — insonni ulug‘lovchi ma’naviy yuksaklik timsolidir. Navoiy nazarida odob va axloq “insonni yuksaltiruvchi ziynat” bo‘lib, ular jamiyat barqarorligining ruhiy asosi hisoblanadi.

Zamonaviy falsafiy tafakkurda ham axloq – shaxs erkinligini belgilovchi, insoniyatni inqirozlardan saqlovchi universal qadriyat sifatida qaraladi. I. Kantning “axloqiy qonun insonning ichidadir” degan fikri axloqning tashqi emas, ichki mohiyatini ochib beradi. Demak, axloq falsafiy jihatdan insonni o‘z mohiyatini anglashga, o‘z “men”ini ezgulik yo‘lida shakllantirishga yo‘naltiruvchi konseptdir.

Natijalar. Falsafiy pragmatizm nuqtayi nazaridan axloq – insonga hayotiy yo‘l-yo‘riq, “xayr-u yaxshilik”dan ko‘ra foydali yoki ijtimoiy barqarorlikka olib keladigan me‘yorlar. Axloq falsafaning uzviy qismi bo‘lib, ezgulik falsafasi sifatida insonni haqiqatga olib boruvchi yo‘l deb talqin etiladi. U falsafaning asosiy maqsadi – inson tafakkurini yuksaltirish va haqiqatga eltish vazifasini ezgulik orqali amalga oshiradi. Axloqshunoslik axloqiy tafakkurning rivojini, uning nazariy muammolarini o‘rganadi; shuning uchun u sof nazariya emas, balki amaliy falsafa hisoblanadi⁴². Falsafiy jihatdan axloq – inson ixtiyor erkinligining oqilona cheklanishi bo‘lib, ichki iroda orqali tartibga solinadigan ma’naviy hodisa sifatida talqin etiladi.

Islom falsafasida axloq uch yo‘nalishda qaraladi:

- 1□. Ilohiy axloq – Allohga muhabbat va itoat orqali poklanish;
- 2□. Ijtimoiy axloq – jamiyatda halollik, adolat va o‘zaro hurmatni saqlash;
- 3□. Shaxsiy axloq – vijdon, hayo va sabr bilan o‘zini tarbiyalash⁴³.

Diniy yo‘nalish tavsiflari asosida “Axloq” konseptining markazida turadi.

Islom dini axloqiy me‘yorlarni shakllantirishda asosiy omil bo‘lib, Qur’oni karim va Hadislar axloqiy qonuniyatlarning manbai sifatida e’tirof etiladi. Ta’kidicha, tasavvuf

⁴¹ Rumiy. Ichindagi ichindadir. U. Abduvohob tajjimas. T., “Yozuvchi”, 1997, 31-b.

⁴² Bu haqida qarang. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 330 b.

⁴³ Ko‘rsatilgan manbaa.

ta’limoti islomiy axloq falsafasining eng yuksak shaklidir – u komil inson g‘oyasini axloqiy mukammallik bilan bog‘laydi. Dinga ko‘ra, axloq faqat tashqi xatti-harakatlar emas, balki ruhiy poklik va niyat sofligini ham o‘z ichiga oladi. Ahmad Yassaviy hikmatlarida axloq “nafsnı poklash”, Bahouddin Naqshband talqinida esa “dil pokligi va mehnat” orqali kamol topadi. Demak, diniy ma’noda axloq – bu inson ruhining poklanish jarayoni, iymonning amaliy ko‘rinishi. Diniy qarashlarda axloq – iymonning samarasi, e’tiqodning amaliy ifodasidir. Shaxsning imoni kuchli bo‘lsa, axloqi ham mukammal bo‘ladi.

Muhokama. Axloq ijtimoiy ongning asosiy shakli bo‘lib, jamiyat hayotini tartibga soluvchi ichki qonun vazifasini bajaradi. U jamoaviy hayotda uyg‘unlik, totuvlik va o‘zaro ishonchni ta’minlaydi. Insonning axloqiy qiyofasi uning ijtimoiy munosabatlarida namoyon bo‘ladi. Axloq shaxs rivojida ijtimoiy (muhit), tarbiyaviy (tarbiya) va shaxsiy (intilish) omillar bilan bir qatorda turadi. Axloq ijtimoiy-madaniy tizimning birlashtiruvchi elementi bo‘lib, jamiyatning ma’naviy asoslarini mustahkamlaydi. U ma’naviyatning o‘zagi bo‘lib, ijtimoiy hayotdagi barcha munosabatlarni tartibga soluvchi universal hodisa sifatida talqin etiladi. U fuqarolik jamiyati, oila, mahalla va davlat tuzilmalari faoliyatining axloqiy poydevorini tashkil etadi. Axloqiy qadriyatlar ijtimoiy hayotda milliy g‘oya va mafkura bilan uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi.

Bu uchlik shaxsni jamiyatga moslashtiruvchi mexanizmdir:

- Ijtimoiy omil — muhit, oila, jamoa va milliy qadriyatlar orqali;
- Tarbiyaviy omil — ta’lim, ta’limot, ustoz-shogird an’anasi orqali;
- Shaxsiy omil — o‘zini takomillashtirish va ichki intilish orqali.

Xulosa. O‘zbek xalq tafakkurida axloq ijtimoiy hayotning yuragi sifatida qoraladi. “Odob – el ko‘zgusi”, “Axloq – odam ziynati” kabi maqollar milliy tafakkurda axloqning jamiyatdagi o‘rnini aniq belgilaydi. Zamonaviy sotsiologik yondashuvda axloq — bu “ijtimoiy ekologiya” tushunchasiga teng, ya’ni insonlar o‘rtasidagi axloqiy muvozanat jamiyat sog‘lomligini ta’minlaydigan “vosita” sifatida o‘rganish dolzardir.

Globalizatsiya davrida individualizm, iste’molchilik va ommaviy madaniyat tahdidlari ostida axloqiy qadriyatlarning yemirilish xavfi ortmoqda. Shu bois milliy axloqiy tizimni tiklash, yoshlar ongida vijdon, hayo, or-nomus, sadoqat singari qadriyatlarni mustahkamlash muhim ijtimoiy vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 330 b.
2. Xojiyev Y. “Alpomish” dostonidagi shaxs ma’naviy sifatlarini ifoda etuvchi atov birliklarning semantik-struktur, konseptual va leksikografik xususiyatlari: Filol. fan. bo‘yicha fals. dokt. (RhD) ... diss. – Toshkent, 2020.
3. Xudayberganova D. O‘zbek tilidagi badiiy matnlarning antropotsentrik talqini: Filol.fan. d-ri. ...diss. – Toshkent: O‘zRFA TAI, 2015. – B. 240.
4. Lutfullayeva D. Assotsiativ tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: MERIYUS, 2017. – B.140.

5. Xudoyberganova D. Matnning antropotsentrik tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2013. – – B. 135.

6. Bobojonova Sh. O‘zbek tili “ma’naviyat” leksik-semantik kategoriyasining “axloq” umumiy semali atov birliklari tizimi: filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori diss. avtoreferati. Qarshi, 2022